

ZULFIYAXONIM- IQTIDORLI O'ZBEK SHOIRASI

U. D. Xolboyeva

Toshkent tibbiyot akademiyasi Tibbiy biologiya fakulteti talabasi

Askarova Nargiza Abdivalievna

Ilmiy raxbar: Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Ushbu maqola sharq ayollariga xos tengsiz nazokatu latofatni, aql-zakovatni o‘zida mujassam etgan Zulfiya Isroilova haqidadir. Zulfiya she’riyatining nufuzi — bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o‘ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir.

Tayanch so`zlar: Shoira, iqtidor, ijod, vatanparvar, mexnatsevar, fidoiylik, sadoqat

Zulfiya Isroilova - taniqli va iqtidorli o‘zbek shoirasi. Zulfiyaxonimni nomini barchamiz doimo lutf va ehtirom bilan tilga olamiz. O‘z ijodida toza muhabbatni, vafo va sadoqatni, tinchlik va ozodlikni tarannum etgan shoiraning har bir she’ri teran fikrlar, yorqin hissiyotlaru hayotiy mushohadalar bilan mukammallik kasb etganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi, Zulfiya Isroilova 1915 yil 1 martda Toshkentning O‘qchi mahallasida degréz oilasida tug‘ilgan. Zulfiyaxonim yoshligidan ilmga chanqoq, she’riyatga oshno edi. Xotin-qizlar bilim yurtida o‘qib yurgan vaqtlaridayoq (1931–1934) adabiy to‘garaklarga qatnashib, she’rlar mashq qiladi. Zulfiyaning ijodiy kamolotida o‘zbek va rus klassiklari, xalq og‘zaki ijodiyoti va jahon adabiyoti an’alarining roli beqiyos bo‘ldi. Shoira “Temiroy” (1934), “She’rlar” (1939), “Qizlar qo‘shig‘i” (1939) kabi poetik asarlarini ona Vatan va uning dala, cho’llarida mehnat qilayotgan paxtakorlar, traktorchi qizlarning qaynoq hayotlariga bag‘ishlaydi. Ayni chog‘da, mazkur to‘plamlardagi she’rlari shoiraning mahorat sirlarini egallayotgan davrini xarakterlovchi asarlar sifatida ham muhim edi.

Zulfiyaning “Mening Vatanim”, “Qo‘limda qurolu ustimda shinel”, “Bizni kut” kabi umidbaxsh she’rlari urush davri o‘zbek she’riyatining jangovor ruhini ifodalovchi asarlar qatoridan o‘rin olgan. Vataniga, ona yeriga bo‘lgan muhabbatni



E- Global Congress

Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 20th January, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

- vatanparvarlikning oliy tuyg‘usi bo‘lib, harbiy janglarning saodatli yakuniga ishonch bilan birlashadi - bu shunchaki, Zulfiyaning shoirona qalbiga xos o‘ylargina emas, balki o‘zbek xalqining tabiatiga xos milliy fe’l-atvor qirralari bo‘lib, shoiraning she’rlarida yorqin ifodalanadi. Vataniga, ona yeriga bo‘lgan muhabbat – vatanparvarlikning oliy tuyg‘usi bo‘lib, harbiy janglarning saodatli yakuniga ishonch bilan birlashadi – bu shunchaki, Zulfiyaning shoirona qalbiga xos o‘ylargina emas, balki o‘zbek xalqining tabiatiga xos milliy fe’l-atvor qirralari bo‘lib, shoiraning she’rlarida yorqin ifodalanadi. Shoira Vatanidan tashqaridagi baxtni tan olmaydi, xatto u yer yaxshiroq bo‘lsa ham: “Axir, baxt ona diyordagina tirikdir”.

Zulfiya uzoq o‘tmishda ayol o‘rni uy-ro‘zg‘or yumushlari doirasida bo‘lganligini, uyda ham bek, ham hukmdor bo‘lgan eriga itoatli cho‘ri bo‘lib, bosh egishi lozim bo‘lganligini yashirmaydi. Zulfiya she’riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho‘qqisi bo‘lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she’rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo‘yoq va timsollarda gavdalanadi. Zulfiyaning oljanoblik, jasorat, haqqoniylar xalq g‘ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiyligi tuyg‘ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning keljakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Zulfiyaning o‘n beshga yaqin majmualari rus tilida chop etilgan. Uning asarlari ingliz, nemis, hind, bolgar, xitoy, koreys, arab, fors, tojik, arman, qirg‘iz, tatar, turkman, boshqird, ozarbayjon va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shoira N. Nekrasov, M. Lermontov, Vera Inber, Lesya Ukrainska, Edi Ognetsvet, Marvarid Dilboziy, Amrita Pritam asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Zulfiyaxonim «O‘ylar», «Shalola» kabi she’riy to‘plamlari uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. Hindiston mavzuidagi she’rlari uchun Javoharla’l Neru nomidagi xalqaro mukofotga, tinchlik va do’stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyatparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun esa xalqaro «Nilufar» mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Zulfiyaning oljanoblik, jasorat, haqqoniylar xalq g‘ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiyligi tuyg‘ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning keljakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. “Baxtim shulki, o‘zbekning Zulfiyasiman” degan edi xalqimizning atoqli shoirasi Zulfiyaxonim. Baxtiyor o‘zbek ayolining yorqin timsoli bo‘lgan ushbu shoira nomini barchamiz doimo lutf va ehtirom



E- Global Congress

Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 20th January, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

bilan tilga olamiz. O‘z ijodida toza muhabbatni, vafo va sadoqatni, tinchlik va ozodlikni tarannum etgan shoiraning har bir she’ri teran fikrlar, yorqin hissiyotlaru hayotiy mushohadalar bilan mukammallik kasb etganini ko‘rishimiz mumkin.

Ona Vatanim

So‘zlarning gavhari senga munosib,
O‘tmishim eslayman seni aytiboq.
Ajdodlar eli bo‘ldi bu makon,
Osmonda nur sochgan, ona Vatanim.
Osmoning tinch, beg'ubor o'lka,
Jannatning havosi yelib keladi.
Bag‘ringda yashaymiz, tinch - totuv hamon,
Onadek mehribon, Ona Vatanim.
Madhiyangda yangrar husn jamoling,
Gerbingda humo qush, tinchlik misoli.
Osmonda bayrog‘ing hilpirar mag'rur,
Yagona, muqaddas ona Vatanim.

Mustaqillik yillarda ibratli hayot kechirgan, keng ijtimoiy faoliyat olib borgan shoira Zulfiya betakror iste’dodi, Vatanga muhabbati, oljanob insoniy fazilatlari, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari uchun yuksak hurmat va e’zozga sazovor bo‘ldi. O‘zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e’tiborga olib 1999 yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etdi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Zulfiyaxonim o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos o‘ringa ega shoira bo‘lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha oljanob xislatlariga ega ayol bo‘lgan. Bugun shu maqolani yozish va Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo`ldimki, o‘zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo`lni bosib o`tgan bo`lmasin, unda bir qator tom ma`nodagi ijodkorlar etishib chiqgan va ularni ichidagi porloq yuzluzlardan biri bu Zulfiyaxonim bo’lgan.

E- Global Congress

Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 20th January, 2023

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ADABIYOTLAR

- 1.O‘zbek adiblari” (S. Mirvaliyev, R. Shokirova. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 2016)
2. Bekmirov, T. (2022). *Ёшлиарни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг ижтимоий-психологик ҳусусиятлари* (Doctoral dissertation, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari).
- 3.EMERGENCY PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE IN EXTREME SITUATIONS. AN Abdivalievna, IN Nuriddinovna - Spectrum Journal of Innovation, Reforms and ..., 2022.
4. Psychological Characteristics of Children with Attention Deficiency and Hyperactivity and their Readiness for School Training* AN Abdivalievna - European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 2022.
5. Abdivalievna, A. N. (2022). Age Features of Aggressive Behavior. Eurasian Medical Research Periodical, 15, 16-20.
6. Askarova Nargiza Abdivalievna, PSYCHOCORRECTION OF BEHAVIORAL AND EMOTIONAL FIELDS IN CHILDREN WITH ATTENTION DEFICIT AND HYPERACTIVE , British Journal of Global Ecology and Sustainable Development: Vol. 10 (2022)
7. PSYCHOLOGICAL FEATURES OF ACHIEVING PROFESSIONALISM IN THE WORK OF DOCTORS AN Abdivalievna - British Journal of Global Ecology and Sustainable ..., 2022
8. PSYCHOCORRECTION OF BEHAVIORAL AND EMOTIONAL FIELDS IN CHILDREN WITH ATTENTION DEFICIT AND HYPERACTIVE AN Abdivalievna - British Journal of Global Ecology and Sustainable, 2022.
9. PSYCHOLOGICAL HEALTH OF CHILDREN AS A FACTOR OF SUCCESSFUL EDUCATION Ж Дилдора British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 148-151.
10. Ziyodullaevna, J. D. (2022). Psychological Characteristics Of The Development Of Generosity In Children. Eurasian Scientific Herald, 8, 225-228.